JIZZAX VILOYATI G‘ALLAOROL TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 6 - iyun 131-3-45-Q/23 G‘allaorol tumani hokimligi

G‘allaorol tuman hokimining 2022 yil 31 oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida”gi 436-3-45-Q/22-sonli qaroriga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida

O‘zbekiston Respublikasi “Axoli bandligi to'grisida”gi Qonunining 39-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tumanda 2023 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida:

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Axoli bandligi to'grisida”gi Qonunining 39 -moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlarda 2023 yil uchun 3 foizdan 7 foizgacha jami 163 ta kvota ish o‘rinlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.. G‘allaorol tuman hokimining 2022 yil 31 oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida”gi 436-3-45-Q/22-sonli qarorining 1-ilovasi, ilovaga muvofiq yangi tahrirda qabul qilinsin.

Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun (48 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun (73 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun (8 kishi); nogironlar va pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun (4 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov

choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun (5 kishi);

Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan shaxslar uchun (25 kishi); ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmagan kasalliklarga chalingan shaxslar uchun (0 kishi);

2. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi ta’minlansin, xususan:

yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek oliy o‘quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun - mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun - maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa - maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rni ilgari ushbu ish o‘rnini egallab kelgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘xtatilishi munosabati bilan bo‘shab qolganda bu haqda tashkilot 10 kun muddatda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yangidan ochilgan bo‘sh ish o‘rni to‘g‘risida xabardor etishi belgilansin.

4. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini belgilangan soni hisobida yil boshlangungacha 10 kundan kechikmay 25 foiz, qolgan qismini band qilib qo‘yishni keyingi kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasinlar.

Tashkilotlar har oydada tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ushbu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirilishi to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot taqdim etsinlar.

5. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima solinadi.

Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish

qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda sarflangan mablag‘larning bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

7. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish 1-ilovaga asosan tasdiklansin.

8. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishini ta’minlasin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining 1-o‘rinbosari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Ж.Оқбоев**

G‘allaorol tuman hokimining
2023-yil 6-iyundagi
131-3-45-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Gallaorol tumani bo‘yicha 2023 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha
MANZILLI JADVAL

T/r	Korxona INN raqami	Topshiriq belgilangan korxona nomi	korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:						
					14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun

1	207056212	2-sonli "NAVRO'Z" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	55	1					1		
2	207009554	5-sonli "UCHQUNCHA" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	76	2	1	1					
3	207056924	6-sonli "QUYOSHCHA" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	83	2		1			1		
4	207055894	8-sonli "GULLOLA" nomli sog'lomlashtirish maktabgacha ta'lim muassasasi	65	2	1				1		
5	207057242	12-sonli "MARJON" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	46	1	1						
6	207060399	14-sonli "MARVARID" nomli maktabgacha ta'lim muassasi	78	2		1			1		
7	207056949	16-sonli "G'UNCHA" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	53	2	1	1					
8	207056229	22-sonli "RA'NO" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	62	2		1			1		
9	207056569	25-sonli "DO'STLIK" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	51	2	1	1					
10	207057259	24-sonli "IRMOQCHA" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	53	2		1			1		
11	207060106	27-sonli "SHODLIK" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	70	2	1	1					
12	305782915	4-sonli "SAMOVIY YULDUZCHA" maktabgacha ta`lim muassasasi	61	2	1	1					
13	206886669	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	49	1		1					

14	206886296	5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	43	1					1		
15	206874010	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	51	2	1	1					
16	206874034	8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	42	1			1				
17	206916470	10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	41	1		1					
18	206886272	11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	46	1		1					
19	206886383	12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	1		1					
20	206894002	13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	49	1	1						
21	206874059	15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	55	2		1	1				
22	206886154	18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	45	1	1						
23	206886043	21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	41	1			1				
24	206886067	23-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	59	1		1					
25	206886479	24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	103	2	1	1					
26	206889600	25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	87	1		1					
27	206886454	26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	97	3	1			1	1		
28	206908425	28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	49	1		1					
29	206886344	30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	59	2	1	1					
30	206886185	31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	46	1	1						
31	206886233	32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	66	2		1			1		

32	206886415	35-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	47	1		1					
33	206906364	36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	45	1	1						
35	206886099	38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	41	1		1					
36	206886028	39-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67	2	1				1		
37	206886011	40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	39	1		1					
38	206905460	41-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	42	1	1						
39	206886691	42-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	85	1		1					
40	206886408	44-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	195	4	1	1		1	1		
41	206904938	47-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67	1		1					
42	206909835	48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	2							
43	206886724	49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	60	2		1	1				
44	206886731	50-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	56	2	1				1		
45	206886684	51-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	44	1		1					
46	206886534	52-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	64	2	1	1					
47	206886289	54-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	54	2		1			1		
48	206886486	55-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	51	1		1					
49	206874066	56-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	2	1	1					
50	206886178	58-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	1		1					
51	206886082	59-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	2	1	1					

52	206886161	61-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	37	1					1		
53	206886368	62-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	2	1				1		
54	206886375	63-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	53	2	1	1					
55	206886502	64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	51	2		1	1				
56	206886541	65-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	36	1	1						
57	206908418	73-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	73	2	1				1		
58	206913981	74-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	44	1		1					
59	206886139	75-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	48	1		1					
60	206886035	76-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	41	1	1						
61	206886240	77-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	44	1					1		
62	206886519	78-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	1		1					
63	206886218	79-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	46	1					1		
64	206874042	80-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	56	1		1					
65	206886351	81-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	45	1	1						
66	206886423	82-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	33	1					1		
67	206889592	83-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	32	1		1					
68	206886494	84-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	66	2	1		1				
69	201672005	88-sonli iqtisolashtirilgan Davlat umumta'lim maktabi	56	1		1					
70	206886107	G'allaorol tumani 91-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	76	2	1	1					

71	206765605	G'allaorol tumani G'allaorol ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji	39	1		1					
72	205844910	G'allaorol tumani Lalmikor 1 son kx мактаби	71	2	1				1		
73	204753044	G'allaorol tumani "GULISTON" Агротехника техникум	62	2		1		1			
74	207239632	G'allaorol tumani bolalar-o'smirlar sport maktabi	113	4	1	2			1		
75	207144862	G'allaorol tumani 15-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi	62	2		2					
76	205192196	Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun "MARJON SUVI" sanatoriysi	111	2	1				1		
77	201030653	G'allaorol tumani tibbiyot birlashmasi	1468	26	9	15		1		1	
78	201030749	G'allaorol tumani hokimligi "OBODONLAShTIRISh BOShQARMASI"	241	3	1					2	
79	201671995	Jizzax viloyat bolalar sil kasalliklar sihatgohi	84	2	1	1					
80	201030724	G'allaorol tumani Xalq ta'limi bo'limi	83	1		1					
81	201089935	G'allaorol tumani 2 сон касб хунар мактаби	63	2	1		1				
82	201089168	ТЙФУК	142	4	1				1	2	
83	207332139	урмон хужалиги	48	2	1				1		
84	309964186	Имроншох-текстил-бизнес МЧЖ	29	1		1					
85	302445195	Сангзар паултрй МЧЖ	42	1		1					
86	309866750	Президенттаълим муассасалари агентлиги	60	1		1					
87	308560761	3 сон ДМТТ	44	1		1					

88	305351074	"Жажжи Алпомиш" МЧЖ	20	1		1					
89	308571487	10 сон ДМТТ	22	1		1					
		жами	**6785**	**162**	**47**	**73**	**7**	**4**	**24**	**5**	